

Talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda divergent tafakkur ahamiyatining nazariy tahlili

Madina Komiljon qizi Holqova
Zarmad universiteti

Annotatsiya: Talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda divergent tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tafakkur turi talabalarga muammolarni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va o'z fikrlarini yanada mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida divergent tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodlar va yondashuvlardan keng foydalanish zarur. Ularning kelajakda muvaffaqiyatli va raqobatbardosh mutaxassis bo'lishlarida muhim omil hisoblanadi. Zamонавија jamiyatning tezkor rivojlanishi va innovatsion taraqqiyot jarayonlari talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishni talab etmoqda. Divergent fikrlash - bu bir nechta mumkin bo'lgan echimlarni o'rGANISH ORQALI ijodiy g'oyalarni yaratish uchun ishlatiladigan fikrlash jarayoni.

Kalit so'zlar: divergent fikrlash, tezkor rivojlanish, innovatsion taraqqiyot, raqobatbardosh mutaxassis, tafakkur, ijodiy fikrlash, qobiliyatni rivojlantirish

Theoretical analysis of the importance of divergent thinking in the development of students' creative thinking abilities

Madina Komiljon kizi Holykova
Zarmad University

Abstract: Divergent thinking is of great importance in the development of students' creative thinking abilities. This type of thinking allows students to consider problems from different perspectives, develop innovative solutions and further strengthen their ideas. Therefore, it is necessary to widely use methods and approaches aimed at developing divergent thinking in the educational process. It is an important factor in their future success and competitiveness as specialists. The rapid development and innovative development processes of modern society require the formation and development of students' creative thinking abilities. Divergent thinking is a thinking process used to generate creative ideas by exploring several possible solutions.

Keywords: divergent thinking, rapid development, innovative development, competitive specialist, thinking, creative thinking, development of abilities

Zamonaviy jamiyatning tezkor rivojlanishi va innovatsion taraqqiyot jarayonlari talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishni talab etmoqda. Bugungi kunda faqat an'anaviy bilimlarni egallash kifoya emas, balki ushbu bilimlarni yangicha yondashuv va g'oyalar orqali amalga oshirish ham muhim sanaladi. Divergent fikrlash - bu bir nechta mumkin bo'lgan echimlarni o'rganish orqali ijodiy g'oyalarni yaratish uchun ishlataladigan fikrlash jarayoni. Bu odatda o'z-o'zidan, erkin, "chiziqli bo'lman" sodir bo'ladi, shuning uchun ko'plab g'oyalar spontan kognitiv tarzda hosil bo'ladi.

Divergent tafakkur - insonning muammolarni ko'p qirrali yondashuvlar orqali hal etish qobiliyatidir. Ushbu tafakkur turi talabalar ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Divergent tafakkur quyidagi jihatlar orqali ajralib turadi:

1. Ko'p variantlilik - bir muammoni yechishning turli usullarini ishlab chiqish.

2. Moslashuvchanlik - har xil vaziyatlarga tez moslashish va o'zgarishlarga innovatsion yondashish.

3. O'ziga xoslik - noodatiy va original g'oyalar ishlab chiqish.

4. Aniq va to'liq izohlash - ilgari surilgan g'oyalarni asoslab berish va ularni

Ijodiy fikrlash talabalarga mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, yangicha g'oyalar yaratish va o'z kasbiy faoliyatida samarali yechimlar topish imkonini beradi. Quyidagi jihatlar ijodiy tafakkurning muhimligini ifodalaydi:

1. Muammolarni yechish qobiliyati - Talabalar murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va innovatsion yechimlarni topish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2. Innovatsion yondashuv - Ijodiy fikrlash yangi g'oyalar va loyihalarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

3. O'z-o'zini rivojlantirish - Yangilikka intilish va o'z ustida ishlash ijodkorlikni oshiradi.

4. Ijtimoiy moslashuvchanlik - Jamiyatda o'z o'rmini topish va zamonaviy kasblarga moslashish uchun zaruriy omildir.

Divergent tafakkurning talabalarning ijodiy fikrlashiga ta'siri

Talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda divergent tafakkur quyidagi jihatlari bilan muhim ahamiyat kasb etadi:

- Muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish - talabalar an'anaviy va standart yondashuvlardan tashqari, yangicha fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

- Ijodiy faollikni oshirish - talabalar yangi g'oyalar yaratishga va ularni hayotga tatbiq etishga intiladilar.

- Tanqidiy fikrlashni shakllantirish - talabalar muammolarni turli tomonlama ko'rib chiqishga va eng maqbul yechimlarni izlashga odatlanadilar.

Ijodiy fikrlash vaziyatni bir necha tomondan ko'rish, hodisalar o'rtasidagi kutilmagan aloqalarni topish va muammolarni hal qilishning yangi usullarini taklif

qilish imkonini beradi. Bu kompaniyalarga bozorda raqobatbardosh bo‘lishga, mijozlarni jalb qilishga, mahsulot va xizmatlarni yaxshilashga, rivojlanishga yordam beradi. Jahon iqtisodiy inqirozi o‘zbek menejerlarining tafakkurini o‘zgartirish zarurati ortib borayotganini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Menejer doimiy ravishda paydo bo‘ladigan nostandard vaziyatlarni faqat mavjud bilimlarga asoslangan holda muvaffaqiyatli hal qilishi mumkin emas, chunki u mustaqil ravishda ko‘p bosqichli kombinatsiyalarni, ko‘p variantli echimlarni ishlab chiqishi kerak, bulardan muayyan vaziyatda eng maqbulini asosli tanlashi kerak. Buning uchun menejer yaxshi rivojlangan divergent fikrlashga ega bo‘lishi kerak. Bularning barchasi kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun barcha zarur xislat va qobiliyatlarga ega bo‘lgan raqobatbardosh menejerlarni tayyorlash bo‘yicha oliv ta’lim muassasalarining mas’uliyatini oshiradi.

Hozirgi vaqtida fan bo‘lajak menejerlarda divergent fikrlashni shakllantirish jarayonining mohiyati va mexanizmini tushunishda oldinga siljish imkonini beradigan etarlicha keng tadqiqot va ishlanmalarga ega.

Talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun quyidagi usullarni qo‘llash tavsiya etiladi:

mustaqil va tanqidiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlash - talabalarga erkin fikrlash va turli nuqtayi nazarlarga ochiq bo‘lish imkoniyatini yaratish lozim;

muammoli vaziyatlarni tahlil qilish - amaliy mashg‘ulotlar, muammoli vazifalar va real hayotiy holatlar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish;

jamoaviy ish va bahs-munozaralar - guruhda ishlash va fikr almashish orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish mumkin;

texnologiyalardan foydalanish - zamonaviy texnologiyalar, interaktiv dasturlar va sun’iy intellektdan foydalanish orqali ijodiy tafakkur faollashtiriladi;

badiiy va madaniy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash - san’at, adabiyot va musiqaga qiziqish ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi;

eksperiment qilish va yangilik yaratish - talabalarga o‘z g‘oyalarini sinab ko‘rish va xatolardan saboq olish imkoniyatini berish.

Divergent tafakkurni rivojlantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

1. Brainstorming (Aqliy hujum) - talabalarni erkin fikr yuritishga undash va turli g‘oyalarni muhokama qilish.

2. Assotsiativ fikrlash mashqlari - muayyan so‘z yoki tushunchalarga asoslangan yangi fikrlar yaratish.

3. Rol o‘yinlari va ijodiy muammolarni hal qilish - talabalarni muayyan vaziyatga jalb qilish orqali yangi yondashuvlarni topish.

4. Analogiyalardan foydalanish - turli sohalardagi tajribalarni taqqoslash va ulardan ilhomlanish.

5. Ochiq muammolar bilan ishlash - oldindan tayyor javoblari bo‘lmagan masalalar ustida ishlash.

Kelajakdagi menejerlarda divergent fikrlashni rivojlantirish jarayoni uch bosqichdan iborat maxsus ishlab chiqilgan metodologiya sharoitida yanada muvaffaqiyatli sodir bo‘ladi: maqsad qo‘yish, motivatsion-faollik va faoliyat-rivojlantirish. Maqsadlarni belgilash bosqichida bo‘lajak menejerlarda divergent fikrlashni rivojlantirish zarurati dolzarblashtiriladi, maqsadlar qo‘yiladi va ularga erishish usullari tanlanadi; Motivatsion-faollik bosqichida individual va jamoaviy ishda samarali boshqaruv echimlarini topishning motivatsion jihatlari kuchaytiriladi va faoliyat-rivojlanish bosqichida bilim sifatini oshiradigan, kasbiy mahorat va ko‘nikmalarni oshiradigan, turli xil echimlarni ishlab chiqish va tegishli vaziyatda eng maqbulini tanlashda professional tajribani to‘playdigan usul va vositalar aniqlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda divergent tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tafakkur turi talabalarga muammolarni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va o‘z fikrlarini yanada mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida divergent tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodlar va yondashuvlardan keng foydalanish zarur. Ularning kelajakda muvaffaqiyatli va raqobatbardosh mutaxassis bo‘lishlarida muhim omil hisoblanadi. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, mustaqil va ijodiy tafakkurga ega shaxslarni tarbiyalash zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo‘lishi lozim. Shu boisdan, talabalarning ijodiy fikrlashini shakllantirishga doimiy e’tibor qaratish, ularni innovatsion fikrlashga undash va yangi imkoniyatlarni kashf etishga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Аверьянов, А. Н. Системное познание мира: Методические проблемы Текст. / А. Н. Аверьянов. - М. : Политиздат, 1985. — 263 с.
2. Адэишвили, Ш. Г. Логика, диалектика и реальное мышление Текст. / Ш. Г. Адэишвили. Тбилиси : Мецниереба, 1984. - 147 с.
3. Андреева, Г. М. Социальная психология Текст. : учеб. для высш. шк. / Г. М. Андреева. М. : Аспект-пресс, 1996. — 375 с.
4. Архейм, Р. Визуальное мышление Текст. / Р. Архейм // Психология мышления: хрестоматия по психологии / под ред. Ю. Б. Гиппенрейтер, В. А. Спирионова, М. А. Фаликман, В. В. Петухова. 2-е изд., перераб. и доп. -М. : ACT: Астрель, 2008. - С. 182-190.
5. Арутюнова, Н. Д. Язык и мир человека Текст. / Н. Д. Арутюнова. — 2. изд., испр. М. : Яз. рус. культуры, 1999. — 895 с.

6. Афанасьев, В. Г. Общество: системность, познание и управление Текст. / В. Г. Афанасьев. -М. : Политиздат, 1981. 432 с.
7. Афанасьева, В. Г. Человек в управлении обществом Текст. / В. Г. Афанасьев. М. : Политиздат, 1977. - 382 с.
8. Бабанский, Ю. К. Избранные педагогические труды Текст. / Ю. К. Бабанский ; авт. вступ. ст. Г. Н. Филонов и др. ; АПН СССР. — М. : Педагогика, 1989. 558 с.
9. Бабанский, Ю. К. Педагогика Текст. : учеб. пособие для пед. ин-тов / Ю. К. Бабанский и др. 2-е изд., доп. и перераб. - М. : Просвещение, 1988. -478 с.
10. Ю.Безусова Т. А. Некорректные задачи в развитии дивергентного мышления студентов Текст. / Т. А. Безусова // Современные проблемы науки и образования. 2008. — № 6 (приложение «Педагогические науки»), - С. 12.